

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq x ‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat k ‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 496 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridtinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o’tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR
Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokururatasи huzuridagi IJQK
departamenti.



MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtaidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatillovich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohibjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan).....	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agrokластерларда асосија виситаларни модернизациялаш ва та'мirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliv ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish.....	225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'idosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari ..	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozakov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	320
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Абрарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	347
G.SH.Qo'idosheva ¹ , A.J.Toshboyev ²	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	357
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	367
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari.....	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriiddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi	394
Muxtaras Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Ilhomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Cравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с МСФО и НСБУ.....	413
Эргашева Шахло Тургунновна	



Innovatsion bank mahsulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning ro'li.....	420
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Mintaqa mehnat bozori ishchi kuchiga talab va taklifni boshqarish vositasi sifatida	428
Umarov Oqil Omiljonovich, Abdullayev Umidjon G'afurovich	
Development of a Methodology for Assessing the Brand Equity of Higher Education Institutions	435
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining o'rni.....	442
Avezov Ibrohim Ilhomovich	
Optimizing Digital Pedagogy through Database Applications and Data Mining for a Sustainable Digital Economy	448
Dilfuza Kuzikulova	
Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish	454
Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi	
Talaba va o'quvchilarning kamolotida ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	458
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
To'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish	461
Ikramov Maqsad Muratovich	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish	467
Toyirov Yunus Alamovich	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	474
Turgunov Odilbek Maripovich	
Analysis of the investments in clean energy projects in the developing countries.....	478
Fayziyev Samandar Sobir ogl'i	
Chakana savdo korxonalarida innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	483
Kodirova Zulkumor Namazovna, Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining qo'llanilishida xorij tajribasining o'rni	489
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	



O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

**Avezov Ibrohim Ilhomovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyati yo'nalishlari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritishining ahamiyatli jihatlari tahlil qilingan, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, investitsiya banki, qimmatli qog'oz, aksiya, obligatsiya, anderrayter.

Аннотация: В данной статье анализируется сегодняшняя деятельность коммерческих банков на фондовом рынке Узбекистана, важные аспекты деятельности банков на фондовом рынке, даются выводы и предложения.

Ключевые слова: коммерческий банк, инвестиционный банк, ценных бумаг, акция, облигация, андеррайтер.

Abstract: In this article, today's activities of commercial banks in the stock market of Uzbekistan, important aspects of the banks' activity in the stock market are analyzed, conclusions and suggestions are given.

Key words: Commercial bank, investment bank, stock, share, bond, underwriter.

KIRISH

Iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishda investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi o'z o'zidan tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi» PF-60-son Farmonida iqtisodiyotning real sektorida moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish hamda operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan¹. Bu natijalarga erishishda iqtisodiyotimizning asosiy moliyalashtirish drayveri bo'lgan banklarning faoliyat sohalarini kengaytirib, qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirokchi sifatida qatnashishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bank tizimida eng katta muammo sifatida tijorat banklarida haligacha davlat ulishining yuqoriligini keltirishimiz mumkin, bu, albatta, bank tizimida sog'lom raqobat yaratila olmaslikka, tijorat banklarning belgilangan qonuniy faoliyatlarini yetarli darajada zamon talablariga moslashtira olmasliklarigiga va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifat darajasini pasayib ketishiga olib keladi.

Shu muammoni bartaraf etish maqsadida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 2026-yil yakuniga qadar davlat ulushiga ega tijorat banklari aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish ko'zdautilgan. Uning ijrosini institutsional ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari moliya sohasida mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi, fond bozorida qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi moliya institutlaridan biridir. Ularning faoliyat mexanizmlari faoliyat yuriyayotgan mamlakat qonunchiligi asosida tashkil etiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилда қабул қилинган "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. lex.uz>uz/docs/-5841063



Professor S. Elmirzayevning “Moliya bozori” darsligida banklar moliya bozorida emitent, investor, investitsion vositachilar sifatida ishtirok etishi va ayrim davlatlarda banklar depozitariy vazifasini ham bajarishi keltirib o’tilgan². O’zbekistonda qonunchilik bo'yicha tijorat banklari depozitariy vazifasini bajarish amaliyoti kuzatilmaydi va tijorat banklari qimmatli qog’ozlar bozorida emitent, investor, investitsion vositachi, anderrayter sifatida ishtirok etishi mumkin.

Emitentlar qimmatli qog’ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek, banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega. Bunda banklar va investitsiya vositachilari emitentlar tomonidan chiqarilgan emischiyaviy qimmatli qog’ozlar chiqarilishining joylashtirilmagan qismini sotib olish majburiyatini olib yoki olmagan holda emischiyaviy qimmatli qog’ozlarni emitent nomidan sotish to’g’risida emitentlar bilan shartnomalar tuzishi mumkin³.

Xalqaro amaliyot o’rganib chiqadigan bo’lsak banklar alohida investitsion banklar kabi turi mavjud. Investitsiya banki – bu, asosan, qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq operatsiyalarga ixtisoslashgan kredit-moliya instituti. Uning maqsadi: moliya bozorlari orqali qo’shimcha pul mablag’larini jalb qilish, o’z mijozlarini (jumladan, davlatni) uzoq muddatli kreditlashdir⁴. Bugungi kunda kelib esa tijorat va investitsiya banklari orasidagi farq kamayib bormoqda, sababi tijorat banklari ham investitsiya faoliyati bilan shug’ullanmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O’zbekiston Respublikasi markaziy banki, “Toshkent” Respublika fond birjasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari rasmiy statistik ma'lumotlari va tadqiqotlari natijasi asosida, ko’rsatkichlar monitoringi, kuzatuv kabi metodlar yordamida tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qimmatli qog’ozlarni emissiya qilish, investitsiya va vositachilik operatsiyalarini rivojlantirish orqali mamlakatimizdagi korxonalarни moliyaviy ehtiyojlarini sezilarli darajada qoplash mumkin, buni bevosita jahon amaliyotidan kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga, mamlakatimizdagi tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatini yanada kengaytirish uchun banklarning emitent va mijoz o’rtasidagi munosabatlarni qayta ko’rib chiqish, ularni yuqori bosqichlarga olib chiqish uchun sifat jihatidan yangi bo’lgan investitsiya yo’nalishlarini tashkil etish, bu borada bank mutaxassislarining malakasi zamонавиу texnologiyalarga mos darajada oshirish zarur.

Jahon amaliyotidan ko’rishimiz mumkinki, qimmatli qog’ozlar bozorida faoliyat yuritgan holda banklar faoliyat ko’lamini kengaytirish imkoniyati mavjud. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari fond bozori vositalardan keng miqyosda foydalanadi va bu uchun yetarli darajada iqtisodiy imkoniyat va huquqiy asoslar shakillantirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 35 ta tijorat bankalari mavjud⁵ va qimmatli qog’ozlar bozoridagi faoliyati aytarli darajada emas, bunda fond bozorining o’zini yetarli darajada rivojlanmagani yoki bo’lmasam tijorat banklarini chet el banklari kabi alohida qimmatli qog’ozlar bozorida investitsion faoliyatni amalga oshirmsligi kabi bir nechta sabablarni keltirib o’tishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, xususiy banklar va xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar soni davlat ulushi mavjud bo’lgan banklar soniga nisbatan 2.5 barobarga ko’p bo’lishiga qaramay, tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bozoridagi faoliyatini yuqori baholab bo’lmaydi, masalan, 2023-yil davomida tijorat banklarining jami foizli daromadlarning atigi 5,5 foizi qimmatli qog’ozlar bo'yicha olingan daromadlarga to’g’ri keladi⁶.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tijorat banklari qimmatli qog’ozlar bozorida quydagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin⁷:

- qimmatli qog’ozlarni chiqarish;
- xarid qilish va sotish;
- qimmatli qog’ozlar hisobini yuritish va ularni saqlash;
- mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog’ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

Mamlakatimizda tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bozoridagi asosiy faoliyat yo’nalishi sifatida qimmatli qog’ozlarni emissiya qilish (qimmatli qog’ozlarni chiqarish)ni keltirib o’tishimiz mumkin, yana bir yo’nalish sifatida tijorat banklari qimmatli qog’ozlar bozorida anderrayter sifatida ham faoliyat yuritishlari mumkin. Bunga

2 S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 222 b.

3 S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 224 b.

4 Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog’ozlar. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2012. – 199 b.

5 O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti – 2024-yil.



6 O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti – 2024-yil.

7 O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019-yildagi O'RQ-580-son.




misol qilib O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan "Kvars" aksiyadorlik jamiyatini aksiyalari joylashtirilganligini keltirishimiz mumkin.

Tijorat banklari immatli qog'ozlar bozorida investor sifatida ishtirok etganda quyidagi qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlariga investitsiya kiritishi mumkin⁸:



1-rasm: Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha 2023-yildagi bitimlar hajmi⁹, %.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha 2023-yildagi bitimlar hajmi bo'yicha tijorat banklarining ulushi ancha yuqori, lekin bu tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida faol darajada faoliyat yuritmoqda degani emas, buni yuqorida aytilib o'tilgan tijorat banklarini foizli daromadlaridagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rgan daromadlari hajmidan ham bilib olishimiz mumkin.



2-rasm: Bitimlar soni bo'yicha Top-10 aksiya, dona¹⁰.

2-rasmga ko'ra 2023-yil davomida eng ko'p tuzilgan bitimlar "O'zsanoatqurilishbank" ATB ning (SQBN)


8 Tijorat banklari faoliyatiga oid ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

9 2023-yil yakunlari bo'yicha birjaviy tahlil.

10 Fond birja ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.




aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, jami bitimlar soni 87 530 donani tashkil etgan. "Hamkorbank" ATB ning (HMKB) aksiyalar bilan bog'liq bitimlari hajmi 27 452 tani tashkil etgan. Top-10likni eng quyi qismida O'zbekiston Respublikasi Tovar xom ashyo birjasi AJ ning (URTS) oddiy aksiyalari egallagan, ular bilan 10 626 ta bitimlar tuzilgan.



3-rasm: Bitimlar hajmi bo'yicha Top-10 aksiya¹¹, mlrd so'm

"OCTOBANK" ATBning (OCBK) oddiy aksiyalari 2023-yilda amalga oshirilgan bitimlarning eng katta hajmini qayd etdi – 157,35 mlrd so'm. 2-o'rinda "PERFECT INSURANCE" AJ ning (PFIS) va "UzAuto Motors" AJning (UZMT) oddiy aksiyalari, ularning bitimlari hajmi mos ravishda 51,60 mlrd va 24,14 mlrd so'mni tashkil etgan. "OHANGARONSENT" AJ (OHSM) aksiyalari Top-10 likni 5,00 mlrd so'mlik bitimlar hajmi yakunlagan.

Yuqoridagi 2-3 rasmdagi ko'rsatkichlarga asoslanadigan bo'lsak aksiyalar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni va hajmida tijorat banklari eng yuqori ko'rsatkichlarga ega, bu ma'lumotlar chiqarilgan aksiyalarning fond bozoridagi savdolari bo'yicha keltirilgan, lekin tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitision faoliyati umuman amalga oshirilmagan desak ham bo'ladi, masalan "Octobank" ATB 2012-yildan 2021-yilgacha bank tomonidan aksiyalar sotib olinmagan¹².



4-rasm: 2023-yilda Top 5 ta eng likvid qimmatli qog'ozlar bozor narxining dinamikasi¹³

11 Fond birja ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

12 <https://octobank.uz/uz/shareholders/disclosures/repurchase-of-shares>.

13 Fond birja ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



4-rasmda ko'rishimiz mumkinki 2023-yildagi Top 5 ta eng likvid qimmatli qog'ozlar ro'yxatida tijorat banklarning qimmatli qog'ozlari yuqori o'rinda. "Ipak yo'l" AITB ning oddiy aksiyalari – 212.90 foizga qimmatlashgan, "Ipoteka bank" ATBning imtiyozli aksiyalari 69.12 foizga qimmatlashgan. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning oddiy aksiyalari esa – 4.49 foizga arzonlashgan.

1-jadval. Tijorat banklarining yillar kesimida qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlari hajmi¹⁴, mlrd so'm

Sohalar	2019-y.	%	2020-y.	%	2021-y.	%	2022-y.	%	2023-y.	%
Banklar	319.5	-	326,7	1.02	312.61	0.95	2 308.67	7.38	971.97	0.42

1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida eng ko'p bitimlari hajmi 2022-yilda amalga oshirilgan va eng past ko'rsatkich 2021-yilda qayd etilgan.

2-jadval. Fond birjasida 2023-yil davomida obligatsiyalar bo'yicha savdo ko'rsatkichlari(Top 5 lik)

Tiker	Bitimlar soni, dona	Qim. qog'. soni, dona	Bitimlar hajmi, mlrd so'm
KBPA10	1	180 6	410.00 64
HKIL3	12	651 13	651.00 13
IFMT3	215	227 6	218.00 6
BFMT3	125	299 4	330.00 4

2-jadvalga ko'ra eng katta savdo hajmi "Kapitalbank" ATB (KBPA10) ning obligatsiyalari bilan amalga oshirilgan – 64.41 mlrd so'm, bu jami jami obligatsiyalar bozorida amalga oshirilgan bitimlar umumiy hajmining 69.88 foizini tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda, 2023-yil yakuni bo'yicha "Toshkent" RFB birja kotirovkalari varaqasiga 7 ta emitentning 8 ta obligatsiyalari kiritilgan, ulardan 2 tasi aksionerlik jamiyatni va 2 tasi esa bank sektori, 3 tasi mas'ulyati cheklangan jamiyat shaklidagi emitentlardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, tijorat banklarining O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati istiqbolli, ularning fond bozoridagi faoliyati nafaqat banklarning o'ziga, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham muhimdir, lekin banklarning fond bozoridagi faoliyati hali yetarli darajada rivojlanmaganligini inobatga olib quyidagi takliflarni shakllantirdik:

- tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati bo'yicha qonunchilik asoslarini yanada takomillash-tirish;
- tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarga investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi alohida bo'lim tashkil etish va bu orqali, ularning faoliyat yo'nalishlarini kengaytirish, yangi yo'nalishda yaxshigina daromadga ega bo'lish imkoniyati mavjud;
- banklar arzon resurslar jalb qilish mqsadida qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirishi va bu borada yetarli infratuzilmani shakllantirish lozim;
- tijorat banklaridagi davlat ulushlarini keskin kamaytirish lozim bu o'z navbatida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sun Farmoni, lex.uz/docs/-5841063
2. O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "[Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida](https://lex.uz/docs/-2382409)"gi O'RQ-370-sun Qonuni. lex.uz/docs/-2382409
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 – yildagi "[Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha go'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](https://lex.uz/docs/-3593541)"gi PQ-3620-sun qarori. lex.uz/docs/-3593541
4. S.Elmirzayev va boshqalar. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019.
5. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari bazasi – <https://lex.uz>

¹⁴ Fond birja yil yakunlari bo'yicha hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – <https://cbu.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti – <https://stat.uz>
9. Respublika fond birjasi - <https://uzse.uz>

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

